



«TASDIQLAYMAN»

Navoiy davlat pedagogika instituti  
rektori

B.Sobirov

2023 yil

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan institutga  
o'qishga kirish imtihonidagi suhbat savollarini**

**BAHOLASH ME'ZONI**

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha har biridan bir donadan savol beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholabadi. 67 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi

| <b>№</b> | <b>Mavzular</b>   | <b>Maksimal ball</b> |
|----------|---|----------------------|
| 1        | Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha:  | 25                   |
| 2        | Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha:  | 25                   |
| 3        | Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo'yicha: | 25                   |
| 4        | Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha:   | 25                   |
|          | <b>Jami</b>   | <b>100</b>           |

**Berilgan savollariga talabgorning javobini baholash me'zoni**

| <b>№</b> | <b>Baholash me'zonlari</b>  | <b>Ball</b> |
|----------|---|-------------|
| 1        | Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida ongli bilimlar to'plami ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Bunda tushunchalarni ifodalashda, | 22-25       |

|   |   |       |
|---|---|-------|
|   | javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan xatolar bo'lishi mumkin.  |       |
| 2 | Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin   | 18-21 |
| 3 | Yetarlicha to'liq va yetarlicha batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Tushunchalarni ochishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaganida. U umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.   | 14-17 |
| 4 | Talabgor savol mavzusi bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolar bo'lgan tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglamaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lmaganida. Saviyasi nisbatan past nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu b'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda. | 0-13  |

Qabul komissiyasi ma'sul kotibi



A.Norbekov